

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

**FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOTIDA AKADEMIK IBROHIM
MO'MINOVNING TUTGAN O'RNII**

Ibodova Nasiba Komilovna
Osiyo xalqaro universiteti
“Tarix va filologiya” kafedrası
dotsenti, f.f.d (PhD)
ibotovanasiba58@gmail.com

Baxtiyorova Norsulton Azamatovna
Osiyo xalqaro universiteti
Jismoniy madaniyat yo‘nalishi
1-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada keng bilimli, nodir tafakkurli faylasuflardan biri bo‘lgan O‘rta Osiyoda falsafiy fikrlarni, adabiyot, fan va san‘atning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini chuqur o‘rganib, anglagan, tahlil qilgan, ularga o‘zining faylasufona ilmiy munosabatini bildirgan yirik va zabardast olim, akademik Ibrohim Mo‘minovning ilmiy-falsafiy faoliyati haqida fikrlar tahlilga olingan.

Kalit so‘zlar: bilim, tafakkur, faylasuf, O‘rta Osiyo, fikr, adabiyot, fan, san‘at, rivojlanish, tarix, ilmiy munosabat, yirik va zabardast olim, akademik Ibrohim Mo‘minov.

O‘zbekistonda falsafa o‘zbek xalqining tafakkur tarzi sifatida XX asrda shakllandi, deyish mumkin. Uning shakllanishida Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Is‘hoqxon Ibrat, So‘fizoda singari ko‘plab jadidlar xizmat qilgan. Ular qo‘hna va boy sharq falsafasi an‘analarini sobiq mustabid sho‘rolar davrida ham saqlab qolishga va rivojlantirishga intilishdi, ammo ular sho‘ro tuzumining qurboniga aylanishdi. 1919-21-yillarda Toshkentda Fitrat rahbarligida “Chig‘atoy gurungi” deb nomlangan falsafiy, madaniy-ma‘rifiy va ilmiy-adabiy to‘garak tashkil etilgan. Unda Ashurali Zohiriy, Elbek, Shorasul Zunnun, Shokirjon Rahimiy, Qayum Ramazon, G‘ozi Olim Yunusov singari taniqli ziyolilar faol qatnashib, yurtimizda maorif va madaniyatning yuksalishiga hozirjavob maqolalari bilan hissa qo‘shishgan, xalqning tarixiy xotirasini tiklashga intilishgan. Ammo, ularning bu intilishlari mavjud siyosatga qarshi harakat deb baholandi,

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMYI ONLAYN KONFERENSIYA

ma'rifatparvar adiblarning ko'plari qatag'on qilindi, ular ichida sho'ro tuzumini yoqlagan adiblarga jon saqlab qolishdi.

Xalqimiz azaldan falsafiy tafakkur taraqqiyotiga oid muammolarga qiziqib kelgan. Shu sababli Alisher Navoiyni falsafiy g'oyalari tahlil etuvchi navoiyxonlik, Mashrabning so'fiylik g'oyalari ma'nosini anglashga bag'ishlangan mashrabxonlik, Mirzo Bedilning panteistik g'oyalari aks ettiruvchi ruboiylarining mag'zini chaqish bilan qiziquvchi bedilxonlik an'analari XX asrgacha yetib keldi. O'sha paytlarda Sadridin Ayniy va Z.V.To'g'onlarning falsafa tarixiga oid olib borgan kuzatishlari bugun ham ahamiyatini yo'qotgan emas. 20-40-yillarda falsafa fani chuqur mafkuraviy inqirozga uchragan, u sho'ro tuzumining quroliga, mafkurani targ'ib etadigan vositaga aylantirilgan edi.

O'zbekcha yozuvning 1926-yilda arabcha grafikadan lotin grafikasiga va 1940-yilda undan kirillcha grafikaga o'tkazilishi milliy fan va falsafa taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramasdan, Naim Sayd, K.Yerzin, Hakim Ne'mat, R.Xolmurodov (Mallin) singari olimlarning falsafiy maqolalari bosilib chiqqan. II jahon urushidan keyin falsafa taraqqiyoti yana izga tusha boshladi. Urush davrida O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa taraqqiyotiga turtki berdi. Bu davrlarda S.Valiyev, J.M.Boboyev, N.M.Miroshxina, H.G'.Rasulov, A.T.Ayupov, S.Azimov, I.Mo'minov, V.Zohidovlar falsafa fani rivojiga sezilarli hissa qo'shishdi. V.Zohidov o'rta osiyolik mutafakkir va shoirlar (Beruniy, Navoiy, Bobur va b.) dunyoqarashini chuqur tahlil qildi, madaniy meros va adabiy hayotning muhim masalalariga bag'ishlangan asarlar yozdi. O'zbekistonda birinchi bo'lib falsafa fanlari doktori ilmiy unvoniga sazovor bo'ldi (1946). O'zbekistonda falsafa tarixi (M.M.Xayrullayev, M.Baratov, L.Ye.Garber, A.M.Jalolov, A.Sharipov, R.Nosirov), tabiatshunoslik falsafasi va bilish nazariyasi (O.Fayzullayev, B.Ismoilov, J.Tulenov, V.S.Nikitchenko, K.Ivanova, M.Abdullayeva), madaniyat falsafasi (M.Ahmedova, K.Sodiqov, S.Shermuhamedov, O.Umrzoqova, D.A.Shorahmedov), dinshunoslik falsafasi (S.Azimov, J.Bozorboyev, A.Ortiqov, M.A.Usmonov, B.Valixo'jayev, A.Abdusamedov), axloqshunoslik falsafasi (Y.Jumaboyev, X.Aliqulov, X.Shayxova, Q.Nazarov) hamda ijtimoiy va siyosat falsafasi (E.Yusupov, Q.Xonnazarov, R.Abdushukurov, A.Valiyev, H.Po'latov, A.Choriyev, S.Tursunmuhamedov) yo'nalishlari bo'yicha falsafiy tadqiqotlar olib borildi. O'zbekiston FA Falsafa va huquq instituti tashkil etildi. 1970-80-yillarda I.Mo'minov tashabbusi bilan bu institutda tabiatshunoslikning falsafiy muammolarini tahlil etuvchi

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

metodologik seminar o'tkazish an'anaga aylandi. Mazkur seminar respublikada falsafiy bilimlar targ'iboti markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy istiqlolni qo'lga kiritgach, falsafa fani oldida yangi vazifalar paydo bo'ldi. Bu vazifalarga falsafa fanini kommunistik mafkura asoratlaridan tozalash, jamiyat taraqqiyotining yangi davrdagi qonuniyatlarini falsafiy tahlil etish, milliy istiqlool g'oyasining ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish, respublikada shakllanayotgan huquqiy, demokratik, fuqarolik jamiyatining rivojlanish xususiyatlarini ochib berish va boshqa masalalar kiradi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, Ibrohim Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq institutida har yili "Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari" mavzusiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjumanlar o'tkazib kelindi. Mazkur konferensiyalarda falsafa va huquq fanlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ishlarning natijalari muhokama etib boriladi.

1999-yil 10-iyunda O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati tashkil topdi. Mazkur jamiyatning asosiy vazifalaridan biri respublikada xalqimizning milliy o'zligini anglashi, milliy istiqlool mafkurasining ilmiy-nazariy va falsafiy asoslarini yaratishda hamda nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borishda, shuningdek, mazkur tadqiqotlarning natijalarini keng ommalashtirishda, respublikada shakllanayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida milliy istiqlool g'oyasining hayotiy ehtiyojga aylanishida barcha ziyolilarning birdamlik ruhidagi ishtirokini ta'minlashdan iborat, deb belgilangan. I.Karimovning faylasuf olimlar bilan uchrashuvi (2000 y. 6-aprel)da milliy istiqlool g'oyasining asosiy tamoyillarini ishlab chiqish uchun faylasuflar milliy jamiyatining ishchi guruhini tuzish va bu guruh a'zolariga mazkur vazifani bajarish topshirildi. Shu tarzda "Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasi dunyoga keldi. Faylasuflar milliy jamiyati bugungi kunda bir qancha falsafiy kitob va risolalarni nashr etdi, jahon faylasuflarining mumtoz asarlarini tarjima qilishga kirishdi, turli ilmiy anjumanlar tashkil etdi. Jamiyat respublikada falsafa fani sohasidagi tadqiqotlarni muvofiqlashtirish, jadallashtirish, jamiyat manfaatlari yo'nalishiga burish borasida katta tashkiliy ishlarni amalga oshirdi.

Akademik Ibrohim Mo'minov keng bilimli, nodir tafakkurli faylasuflardan bo'lib, olim O'rta Osiyoda falsafiy fikrlarni, adabiyot, fan va san'atning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini chuqur o'rganib, anglagan, tahlil qilgan, ularga o'zining faylasufona ilmiy munosabatini bildirgan yirik va zabardast olim edi, - deydi sevimli shogirdlaridan biri S.Shermammedov. Uning O'rta Osiyo

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

xalqlari madaniy merosiga qiziqishi bugungi avlod uchun katta maktab bo'lib xizmat qiladi.¹ Atoqli faylasuf S.Shermuhammedovning alloma to'g'risidagi yuqorida keltirilgan fikrlari xolis va haqqoniyatga to'la mos. Akademik Ibrohim Mo'minov umri va ilmini fan rivoji, xususan, falsafa fanining rivojiga bag'ishlagan va bu yo'lda fidoyilik ko'rsatgan zahmatkash olimlarimizdan biri. U kishining shaxs, ziyoli, olim, o'z xalqini chin dildan sevadigan inson, millatparvar ekanligini nafaqat kitoblari, qoldirgan boy ilmiy merosi, balki u insonni yaqindan bilgan kishilar ham e'tirof etishadi.

Faylasuf olimning Ibrohim Mo'minovning keng va boy bilimi, uning adabiy manbalarni har tomonlama chuqur o'rganib tahlil qilishiga, tarix va falsafaga oid yangi ilmiy tadqiqotlarni yozishiga, O'zbekistonda ilk falsafa maktabini yaratishga, hozirgi faylasuf olimlarning bir butun avlodini tarbiyalab, ilm-fan olamiga taqdim etishga yordam berdi. Ibrohim Mo'minov fan, madaniyat va falsafa ilmiga katta hissa qo'shdi. Bu fikrimizni uning to'rt jildli tanlangan asarlari tasdiqlaydi.² Allomaning asarlari mavzu-mundariyasi kuzatilsa, xalqparvar, millatining ertangi kuni uchun qayg'uradigan bir ziyoli inson qiyofasi ko'rinadi. Olimning ilmiy-falsafiy kuzatishlari zamirida soxta shiorlarga ko'milgan, zulm ostida yashayotgan xalqqa qaratilgan achchiq haqiqatlar ko'zga tashlanadi. Faylasuf haqiqiy tarixni xalqqa yetkazish, uni o'zining mard, tanti, oliyjanob, din va davlat homiysi bo'lgan ulug' zotlari, shoirlari, tarixchilari, ularning noyob ilmiy merosi bilan yaqindan tanitishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi. U o'z zimmasiga yuklatilgan mana shu tarixiy vazifani uddaladi, xalqiga munosib farzand sifatida o'z davrining qahramonlaridan biri bo'lib qoldi.

Darhaqiqat, atoqli olim, faylasuf sifatida o'tmishning falsafiy, madaniy merosi va qadriyatlarini o'rganishga, ularni tahlil etishga buyuk hissa qo'sha oldi, - degan edi akademik S.Shermuhammedov.³ Alloma boshlab bergan o'zlikni anglashga qaratilgan hatti-harakatlar bugun muhim ahamiyatga ega. Millatning ertasi aql-salohiyati baland, barkamol avlod bilan bog'liq ekan, yoshlarga dunyo andazalariga mos bilim berish davrning eng muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Qayd etish lozimki, olim ayrim o'rinlarda vaziyat taqozosi bilan bir yoqlama

¹ С.Шермухамедов И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 29.

² С.Шермухамедов И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 30.

³ С.Шермухамедов И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 30.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

fikrlar bildirishga majbur bo'lgan. Lekin shunday qaltis vaziyatlarda ham u tarixiy va ilmiy haqiqatlarni soxtalashtirishdan imkon qadar tiyina olgan. Halollik va ilm-fanga hurmat tuyg'usi olimning muhim fazilati ekanligi va uning davriy taloto'plardan omon-eson olib o'tishini Ibrohim Mo'minov hayoti va faoliyati misolida ko'rish mumkin.

Olimning ilmiy qiziqishlari kengligi uning davr siyosatini puxta bilishi bilan birga, mustaqillikka bo'lgan ishonch, tarixiy haqiqatlarning yuzaga chiqishiga bo'lgan ichki sezgi, o'z tarixini chuqur bilgan va uni yuksak qadrlagan shaxs ekanligidan dalolat beradi. Fitrat, Qodiriy, Cho'lpon singari jadidlardan keyin tarix maydoniga chiqqan Ibrohim Mo'minov garchi sho'ro tuzumi, mustabid siyosat bilan murosa qilgandek ko'rinsa ham, amalda imkon qadar tarixiy haqiqatlarni xalqqa yetkazishga intilgan, millatga o'zini tanitishga uringan. Totalitar tuzum davrida mana shu ishga qo'l urishning o'zi ulkan jasorat edi.

Ibrohim Mo'minovning hayoti va faoliyatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. I. Mo'minovning tarjimayi holini va ilmiy asarlari mazmun-mohiyatini milliy mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan qayta xolis baholash zarur. Ibrohim Mo'minov ilmiy-falsafiy merosini kuzatish, akademik olimning talqin va tahlillarini tadqiq etish, matn ortida turgan "shaxsiy men"ning diniy-irfoniy, ijtimoiy-falsafiy hamda ma'naviy-ruhiy jihatdan kuchli bir shaxsning buyuk siymosini bevosita yaqqol namoyon qiladi. Olimning asarlarini birlashtirib turuvchi bir kuch, uning asarlari o'rtasidan kesib o'tuvchi bir qizil chiziq bor, bu xalqsevarlik va adolatparvarlik hissidir.

Ibrohim Mo'minovning ko'plab falsafiy g'oyalari, uning O'rta Osiyoda va undan tashqarida yashab ijod etgan ajdodlarimiz – mutafakkirlarning dunyoqarashlari to'g'risidagi qimmatli fikrlari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki yurtimiz milliy istiqloli ma'naviy asoslarini mustahkamlash ishiga samarali xizmat qilmoqda.⁴

Alloma iloji boricha, O'zbekistonda ilm-fan rivojiga ko'proq hissa qo'shishga harakat qilish bilan birga, o'z atrofida fanga sadoqat bilan xizmat qiladigan ziyolilarni to'play oldi. Shakllangan kuchli jamoa esa yurtimizda falsafa fanining rivoji uchun kerakli ilmiy xodimlar, yetuk mutaxassislar, olimlarni yetishtirib berdi.

Insonning shaxs sifatidagi qiyofasi eng avvalo, oilada namoyon bo'ladi. O'z yaqinlariga bo'lgan munosabati orqali inson shaxsiyati, tiynati, fe'l-sajiyasi, tabiatiga baho beriladi. Olimlik va odamlilik rutbasini yonma-yon tuta olgan

⁴ Жалолов А. Иброҳим Мўминов – аллома, арбоб ва инсон. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 34.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

I. Mo'aminov sulolasi havas qilsa arzigulik. Ziddiyat va qarama-qarshiliklarga to'la, siyosiy hushyorlik avjiga chiqqan, tilimiz va dinimiz asoratga solingan bir davrda ham olim xalqqa xizmat qilishni uddalay olgan zakiy inson bo'lganligini tarix isbotlab turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.Шермухамедов И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 29.
2. С.Шермухамедов И.Мўминовнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақида //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 30.
3. Жалолов А.Иброҳим Мўминов – аллома, арбоб ва инсон. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар №12. 1998. – Б. 34.
4. Komilovna, I. N. Ziyo Distributed From Tezguzar. JournalNX, 30-33.
5. Komilovna, I. N. (2022). Ibrahim Muminov's Scientific and Philosophical Heritage and Subjective Approaches to His Scientific Activity Under the Rule of the Former Ideology. International Journal on Integrated Education, 5(6), 556-559.
6. Ibodova, N. K. (2023). ALI QUSHCHI FAOLIYATINI TADQIQ ETISHDA IBROHIM MO 'MINOVNING ROLI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 824-829.
7. Komilovna, I. N. (2024). Philosophical Lines to Academician Ibrahim Muminov's Activity. Journal of Sustainability in Integrated Policy and Practice, 2(1), 15-18.
8. Ibodova, N. K. (2024). THE ROLE OF IBRAHIM MOMINOV IN STUDYING THE PERSONALITY OF AMIR TEMUR. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(4), 154-157.
9. Ibodova, N. (2024). ACADEMIC IBRAHIM MOMINOV: MY FIRST TEACHER IS MY MOTHER. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 436-438.
10. İbodova, N., & Raupova, R. (2023). ÖZBEK EDEBİYATI DİLİNİN MODERNİTE DÖNEMİNDE GELİŞİMİNDE ÇOLPON'UN ROLÜ. Philological issues are in the eyes of young researchers, 1(1). 2023
11. Ibodova Nasiba Komilovna. (2024). ANALYSIS OF IBRAHIM MOMINOV'S CREATION OF ABU RAYHAN BERUNI. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(4), 359–365.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

ИЗВЛЕЧЕНО

OT

<https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5153>

12. Ibodov G. K. (2023). KLASSIK VA MAXSUS - YORDAMCHI MASHQLARNING YUKLAMA ME'YORI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 13–16. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/4660>

13. Ibodov Ghalibjon Komilovich. Classic And Special -The Loading Standards of Assistant Exercises. Journal of Sustainability Integrated Policy and Practice. 2024. 19-21-p.

<https://journals.proindex.uz/index.php/SIPP/article/view/485/419>